ZAHIRIDDIN
MUHAMMAD BOBUR
NOMIDAGI ANDIJON
DAVLAT UNIVERSITETI

ANDIJAN STATE
UNIVERSITY NAMED
AFTER ZAKHIRIDDIN
MUKHAMMAD BABUR

ILMIY XABARNOMA

Seriya: Pedagogik tadqiqotlar

SCIENTIFIC BULLETIN

Series: Pedagogical Research

2023 / 2 (70)

Andijon
2023-yil

ILMIY XABARNOMA
Seriya: Pedagogik tadqiqotlar

SCIENTIFIC BULLETIN
Series: Pedagogical Research

Muassis:
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti

Jurnal bir yilda 8 marta (seriya 2 marta) chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 17-avgustda 1097 raqami bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi: 344

Nashr uchun mas’ul:
D.Ne’matova

Jurnal falsafa, tarix, filologiya, pedagogika va biologiya fanlari bo‘yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar e’lon qilinishi lozim bo‘lgan nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Bosishga ruxsat etildi: 26.08.2023
Qog‘oz bichimi: 70x100
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 9,8
Nashr bosma tabog‘i 6,2
Adadi: 200 dona.
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma №:190

“KANS OFFICE” MCHJ matbaa bo‘limida chop etildi.
Andijon shahri, Xarabek ko‘chasi, 104

Tahrir hay’ati raisi:

Azimova Ziyoda Ergashevna – pedagogika fanlari doktori (Andijon, O‘zbekiston)

Tahrir hay’ati

Quronov Muhammadjon – pedagogika fanlari doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich – pedagogika fanlari doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

Yusupova Shoxida Jaloliddinovna – pedagogika fanlari doktori, professor (Andijon, O‘zbekiston)

Xaydarov Mamatjon Eshqulovich – pedagogika fanlari doktori, professor (Toshkent,O‘zbekiston)

Jumayev Mamanazar Irgashevich – pedagogika fanlari doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

Isayev Ilya Fyodorovich – pedagogika fanlari doktori, professor (Belgorod, Rossiya)

Gülgün Bangir Alpan – pedagogika fanlari doktori, professor (Anqara, Turkiya)

Asuka Kavano – pedagogika fanlari doktori (PhD) (Nagoya, Yaponiya)

Aliyeva Shahlo – pedagogika fanlari doktori (Boku, Ozarbayjon)

Jumabayeva Aziya Eleupanovna – pedagogika fanlari doktori, professor (Ostana, Qozog‘iston)

Artikova Muhayyo Botiraliyevna – pedagogika fanlari doktori (Andijon, O‘zbekiston)

Bichurina Seimbika Usmonovna – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (Kazan, Rossiya)

Muharrir:

D.H. Quronov, filologiya fanlari doktori, professor

Tahririyat manzili:
170100, Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129, Telefon: +998911602043. Faks: (374) 223-88-30
E-mail: adu_xabarnoma@mail.ru Rasmiy sayt: www.xabarnoma.adu.uz

MUNDARIJA

Pedagogika nazariyasi

U.J. HASANOV
Talabalarda axborot-texnologik kompetensiyani rivojlantirish muammosi.....5

M.A. SOBIROVA
O‘zbek xalqi etnomadaniyati va islom dini manbalarida tarbiya mavzusining yoritilishi...16

Sh.Sh. XUDAYBERGANOV
Global ta’lim va uning akademik erkinlik bilan bog‘liq jihatlari.....25

M.Sh. RAHMONOV
Mustaqil ta’lim olishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning didaktik asoslari (CourseLab dasturi misolida).....33

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

Ф.Ш.АЛИМОВ, Р.А.ФАХРУТДИНОВА
Компетентностный подход в преподавании английского языка как концептуальная основа новой парадигмы образования.....41

P.M. JALOLOVA
Atom fizikasini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodikasi.....51

A.A. XUDAYBERDIYEV
Jadid matbuoti va darsliklarida *vatan* mavzusining yoritilishi.....59

KICHIK XABARLAR

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

A. HAKIMOV
Biofizika fanini o‘qitish metodikasini kreativ yondashuv asosida takomillashtirish.....71

Pedagogika nazariyasi

A.V. UMAROV
Bo‘lajak muhandis-pedagoglarda mediamadaniyatni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari.....77

CONTENTS

Theory of pedagogy

U.J. KHASANOV
The problem of developing students' information technological competence.....5

M.A. SABIROVA
Coverage of the topic of education in the ethnic culture of the Uzbek people and the sources of the islamic religion.....16

Sh.Sh. XUDAYBERGANOV
Global education and its aspects related to academic freedom.....25

M.Sh. RAHMONOV
Didactic principles of use of innovative technologies in independent education (Courselab example).....33

Theory and methods of education and upbringing

F.Sh. ALIMOV, R.A. FAKHRUTDINOVA
Component approach in teaching foreign languages as a conceptual basis of a new paradigm of education.....41

P.M. JALOLOVA
Methodology of application of digital technologies in teaching exact sciences.....51

A.A. KHUDAYBERDIYEV
The coverage of homeland topic in Uzbek jadids press and textbooks.....59

SHORT SUBMISSIONS

Theory and methods of education and upbringing

A. HAKIMOV
Improving the methodology of teaching biophysics on the basis of a creative approach...71

Theory of pedagogy

A.V. UMAROV
Theoretical and pedagogical foundations for the development of media culture in future engineering pedagogists.....77

UO‘K 821.512.133

JADID MATBUOTI VA DARSLIKLARIDA VATAN MAVZUSINING YORITILISHI

A.A. Xudayberdiyev

Maqolada XX asr boshlarida jadid matbuoti va darsliklarida Vatan mavzusining yoritilishi tadqiq etilgan. Jadidlar ta’limida “vatan” va “millat” tushunchalarining faollashuvi sabablari hamda ushbu konseptlarning matbuot va darsliklardagi talqinlari tahlil qilingan. Jadid matbuoti materiallari, publitsistik asarlar va darsliklardagi “vatan” va “millat” konseptlari genezisi va takomili, ularning yoritilish masalalari davr ijtimoiy muhiti ta’siri bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Vatan, millat, din, an’anaviy konsept, jadidchilik, ma’rifatchilik, Turkiston, turkiylik, taraqqiy, milliylik*.

В статье рассматривается освещение темы Родины в джадидской прессе и учебниках в начале XX века. Анализируются трактовки этих понятий в прессе и учебниках, причины активизации понятий “родина” и “нация” в джадидской просвещении. Генезис и совершенствование понятий “родина” и “нация” в материалах джадидской прессе, публицистических произведений и учебников, вопросы их освещения рассматриваются в связи с влиянием социальной среды того времени.

Ключевые слова: *Родина, нация, религия, традиционный концепт, джадидизм, просвещение, Туркестан, тюркизм, прогресс, национальность.*

KIRISH

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida barcha musulmon jamiyatlari ta’lim, din, siyosat va iqtisodiyot kabi bir necha sohalarda jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdilar. Usmonlilar imperiyasidan Erongacha, Misrdan Turkiston o‘lkasigacha bo‘lgan hududlarda istiqomat qiluvchi musulmonlar o‘zlarining o‘sha davrdagi real holati va mavqeyini anglash, siyosiy va ma’naviy turg‘unlikdan chiqish yo‘llarini izlay boshladilar. Musulmon jamiyatlarining inqirozga yuz tuta boshlashi sababini ilmsizlik, ya’ni jaholatda deb biluvchi yangi ziyolilar qatlami shakllandi. Ular islohotlar zaruratini e’tirof etib, shu yo‘lda harakat boshladilar. Mustamlaka musulmon jamiyatlari mustaqillik uchun kurash olib bordi, mustaqil musulmon o‘lkalari esa o‘z davlatchiligini saqlab qolish uchun kurashar edi. Har ikki holatda ham XX asr boshlarida davrning o‘ziga xos xususiyati millatning o‘zligini anglash jarayoni bo‘ldi.

Maorif vositasida milliy o‘zlikni anglash davrning o‘ziga xos xususiyatiga aylanishi davr matbuotida milliy she’rlarga, milliy turmushni aks ettirishga qaratilgan nasriy va dramatik, ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalariga bag‘ishlangan publitsistik asarlarga rag‘batning kuchayishiga turtki berdi. Bu millatni uyg‘otish, uning dunyodagi o‘rni va ertangi istiqbolini anglash ehtiyoji bilan bog‘liq edi. Anglash jarayoni esa, tabiiyki, shunga mos tushunchalar tizimini taqozo etadi. Shuning natijasi o‘laroq, jadid matbuoti va adabiyotida “vatan” va “millat” tushunchalarining faollashuvi, ularning mazmun-mohiyatini aniq belgilab olishga intilish kuchaygani kuzatildi. Yangilanayotgan “vatan” va “millat” konseptlari asta-sekin jadidlar ta’limiga, ular ochgan maktablarda qo‘llanilgan darsliklarga kiritila boshladi. Maorif vositasida maqsadga yetishishni ko‘zlagan jadidlar bolalarga istiqlol g‘oyalarini “vatan” tushunchasi orqali anglatish va o‘qitish yo‘lidan bordilar.

XX asr boshi jadid adabiyoti avlodiga mansub o‘zbek ijodkorlari asarlarining o‘ziga

xosligi, davrga mos yangi tushunchalar tizimi asosida yaratilganligi adabiyotshunos va munaqqidlar tomonidan ko‘p bora qayd etilgan. Lekin davrga mos yangi tushunchalar tizimining o‘ziga xosligini va shakllanishini yuzaga keltirgan obyektiv hamda subyektiv omillar yaxlit tadqiq etilgan ishlar yaratildi, deb aytolmaymiz. Jumladan, XX asr o‘zbek jadid darsliklaridagi eng faol “vatan” va “millat” konseptlarining maxsus o‘rganilishi, ularning genezisi va takomili masalasini tadqiq etish, qolaversa, Turkistonda jadidchilik harakati natijasida vujudga kelgan pedagogik qarashlarni ham izchil o‘rganish hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Jadid matbuoti materiallari, publitsistik asarlar va darsliklar misolida eng faol badiiy konseptlardan “vatan” va “millat” konseptlari genezisi va takomili, ularning yoritilish masalalarini davr ijtimoiy muhiti ta’siri bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqamiz.

MATERIAL VA METODLAR

XX asr o‘zbek jadid ta’limidagi davrga mos yangi tushunchalar tizimi, xususan, eng faol badiiy konseptlardan “vatan” va “millat” konseptlari genezisi va takomili masalasining tadqiqi uchun jadid ma’rifatparvarlarining asr avvalida yaratgan darslik va darslik-majmualari hamda matbuotda nashr etilgan mavzuga oid maqolalari tahlilga tortildi.

Muammoni o‘rganishda madaniy-tarixiy, sotsiologik va qiyosiy-tipologik tahlil usullari qo‘llanildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Maorif vositasida milliy o‘zlikni anglash davrning o‘ziga xos xususiyatiga aylanar ekan, davr matbuotida milliy she’rlarga, milliy turmushni aks ettirishga qaratilgan nasriy va dramatik, ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalariga bag‘ishlangan publitsistik asarlarga yanada rag‘bat kuchaydi. Bu millatni uyg‘otish, uning dunyodagi o‘rni va ertangi istiqbolini anglash ehtiyoji bilan bog‘liq edi. Anglash jarayoni esa, tabiiyki, shunga mos tushunchalar tizimini taqozo etadi. Shuning natijasi o‘laroq, jadid matbuoti va adabiyotida “vatan” va “millat” tushunchalarining faollashuvi, ularning mazmun-mohiyatini aniq belgilab olishga intilish kuchaygani kuzatildi.

“Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil 17-oktyabrdagi 44-sonida A.Rauf Muzaffar “Bizda ziyolilar va milliy matbuot” maqolasida yoshlar tarbiyasi masalasiga to‘xtalib, shunday deydi: “*Millatda himmat ahllari va ziyolilar ko‘paytirmak uchun ikki yo‘l bor: biri milliy matbuotni taraqqiy etmak, ikkinchisi yoshlarimizni muntazam ilm uylarig‘a kirg‘uzmakdir*”. Bu ishlarni amalga oshirish uchun “*matbuotdan boshqa hech bir quvvatli va ta’sirli iloj topilmas*”ligini ham alohida ta’kidlaydi [1. B. 96].

1905-yili Rusiyadagi inqiboliy harakatlar natijasida Podsho hukumati yon berishga majbur bo‘lib, shu yili 17-oktyabr kuni “So‘z va vijdon erkinligi haqida” Manifest e’lon qildi. Unda shaxsning daxlsizligi, vijdon va so‘z erkinligi ta’minlanishi, jamiyatlar tashkil etish haqida aytib o‘tilgandi. Bu Turkistonda olib borilayotgan harakatlarning ham jadallashishiga yo‘l ochdi. Inqilobiy xarakterdagi ijtimoiy voqealar jamiyatdagi barcha sohalarning o‘zgarishiga, yangilanishiga, isloh qilinishiga zamin tayyorladi. Ijtimoiylashib borayotgan adabiyot bu ta’sirni ilgariroq o‘zida aks ettira boshladi. Matbuot jonlandi. Rossiya imperiyasining turli hududlarida nashr qilingan “Tarjimon” (1883–1918, Bog‘chasaroy), “Sho‘ro” (1908–1917, Orenburg) hamda “Vaqt” (1906–1918, Orenburg) gazetalari, Turkistonda nashr qilingan “Al-Isloh” (1915–1918, Toshkent), “Armug‘on”, “Oyna” (1913–1915, Samarqand) kabi jurnallar hamda “Turkiston viloyatining gazeti” (dastlab 1870–1883-yillarda “Turkestanskiye vedemosti” gazetasiga ilova, 1883–1917, Toshkent), “Taraqqiy” (1906, Toshkent), “Xurshid” (1906, Toshkent), “Shuhrat” (1907, Toshkent), “Tujor” (1907, Toshkent), “Buxoroi sharif” va uning ilovasi sifatida “Turon” (1912, Buxoro), “Samarqand” (1913, Samarqand), “Sadoi Farg‘ona” (1914–1915, Qo‘qon), “Sadoi Turkiston” (1914-1915, Toshkent) va “Hurriyat” (1917–1918, Samarqand) kabi gazetalarda ziyolilar Turkiston

musulmonlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy ahvoliga ko‘proq e’tibor bera boshladi. Jadidlarning milliylik masalalaridagi, millatning o‘zligini anglash borasidagi ishlarining ahamiyati yanada ortib bordi.

Jadidlar ta’limda fikr tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratdi. Abdulla Avloniy bu borada quyidagilarni aytgandi: “*Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilunib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladir*” [2. B. 39]. Darhaqiqat, jamiyatni uyg‘otish va harakatga keltirish uchun Vatan va millatni suyuvchi ana shunday g‘ayratlik ko‘plab “*himmat ahllari va ziyolilar*” kerak edi.

Ilm-ma’rifat targ‘iboti borasidagi harakatlarini jadidlar Turkistonda avvalo ta’limni yo‘lga qo‘yish va maktablar ochish ishlari bilan boshladilar. Dastlab 1893-yilda Toshkent, Samarqand, Qo‘qon shaharlarida “usuli savtiya” (tovush usuli)ga asoslangan jadid maktablari ochilgandi. Bu maktablarning ochilishida ma’rifatparvarlik g‘oyalari targ‘iboti yetakchisi Ismoil Gaspiralining qo‘llab-quvvatlovi va ta’siri sezilarli bo‘ldi. Chunki Ismoil bey 1881-yilda bosmadan chiqargan “Rusiya musulmonligi” asarida Rossiya imperiyasi tasarrufidagi turkiy xalqlar, shu jumladan, Turkiston xalqlari ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish loyihasini kun tartibiga qo‘ygandi. Bu turkiy xalqlar tafakkuridagi buyuk inqilob edi [18. B. 25] Ammo endigina ish boshlagan maktablar faoliyati uzoqqa bormay, Chor hukumati tazyiqi bilan to‘xtatib qo‘yildi. So‘ngra, oradan 8 yil o‘tib, 1901-yil Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan ilk bor usuli jadid maktabi ochildi. 1903-yilda Samarqandda ham Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy Ajziy va Mahmudxo‘ja Behbudiylar tarafidan usuli jadid maktablari ochildi. Turkistonning turli hududlarida Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat, Is’hoqxon Ibrat, So‘fizoda, Mo‘minjon Muhammadjonov (Toshqin), Abdulvahhob Ibodiy, Ashurali Zohiriy, Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Boboxun Salimovlar ishtiroki va boshchiligida jadid maktablari ochilib, faoliyat olib bordi. O‘qitishda ular ko‘rgazmalilik, ifodali o‘qish, uning turlari, og‘zaki va yozma nutq o‘stirish usullari kabi ona tili va adabiyot o‘qitishning muhim masalalarini ishlab chiqdilar. Usuli jadid maktablari harakatning tamal toshiga aylandi. Taraqqiyotning beshigi maktab ekanligini yaxshi bilgan jadidlar yoshlarga ona-Vatan va millatga muhabbat – vatanparvarlik g‘oyalarini singdirishni maktab ta’limidan boshladilar.

Jadid maktablari faoliyat olib borgan davr (1901–1918-yillar)da bir necha darslik va darslik-majmualar chop etildi. Jumladan, Behbudiyning “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar maktublari”, 1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909); Munavvarqorining “Adibi avval” (1907), “Adib us-soniy” (1907), “Yer yuzi” (1908), “Tajvid” (1908), “Usuli hisob” (1911), “Tarixi qavmi turk” (1911), “Tarixi anbiyo” (1912), “Tarixi islomiya” (1912), “Milliy she’rlar majmuasi yoxud adabi din” (1912), “Sabzazor” (1914); Avloniyning “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” (1910), “Birinchi muallim” (1912, 1915, 1916), “Ikkinchi muallim” (1915), “Turkiy guliston yoxud axloq” (1914), “Maktab gulistoni” (1916) darsliklari va “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” to‘plami (1909); Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval” (1902–1917), Hoji Muin ibn Shukrullohning “Forscha alifbo” (1908), “Yangi adabiyot” (she’rlar to‘plami, 1915), Mulla Rustam ibn Yusufbek hojining “Ta’limi avval” (1911, 1913, 1916), Komiljon Hoji Karimiyning “Alif” (1910), Shokirqori ibn domla Zokirning “Ta’limi avval” (1910, 1914), Ashurali Zohiriyning “Imlo” (1916), Abdulvahhob Ibodiyning “Tahsil ul-alifbo” (1912), Abduholiq Usmonqorining “Ta’limi avval” (1914–1915), Dada Mirzaqori ibn Abdurazzoq qorining “Miftoh ul-avval” (1916), Muhammadkarim Faxriddinovning “Rahbari avval” (1915), Said Alizodaning “Birinchi yil” (1917) kabi darslik va asarlari yoshlarning xat-savodi chiqishi, dunyoni anglashi va milliy ruhda tarbiya topishida asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Kun tartibiga Vatan istiqloli va taraqqiyoti masalasi qo‘yilar ekan, maqsadga ma’rifat orqali erishish masalaning muhim sharti edi. Tabiiyki, bu shartni bajarish Vatanning ertangi kuni va istiqbolini belgilaydigan xalqni ma’rifatli qilish, uni uyg‘otishdan boshlanadi. Bu jarayon aksar ilmsiz *xalq*ni Vatan taqdirini hal qiluvchi, taraqqiyotini ta’minlovchi ma’rifatli *millat*ga aylantirishni ko‘zda tutardi. Jadidlar jarayonni to‘liq anglagani holda o‘zlari uchun buni ulug‘ vazifa sanab, maqsadga yetishishga qat’iy kirishdilar. Asr avvalidagi inqilobiy voqealar sabab ziyolilarda milliylikka e’tibor kuchaya boshlagandi. Ziyolilar buni har yo‘nalishda ommaga keng yoyishga urindilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Ulfat” gazetasining 1906-yil 6-aprel 18-sonida va davomi 20-aprel 20-sonida chop etilgan “Millat vazifasi” maqolasida millat va milliylik masalalariga oid fikrlarini bayon qiladi. Rusiyadagi musulmonlar yaxshi yashamog‘i uchun zamonaga ko‘ra vazifasi borligini ta’kidlaydi: “*Biz Rusiya mamlakatig‘a bo‘lg‘on musulmon millati, ozdan o‘n besh milliyon, balki yigirma milliyon bir toifamiz, dunyoda yashamoq, umurguzorlik qilmoq uchun har millatning vaqtiga ko‘ra, bir vazifasi o‘lmoq darkordir*” [3. B. 273].

Behbudiy “musulmon millati” deganida Rusiya mamlakatidagi 15-20 millionlik musulmonlarni nazarda tutmoqda. Odatda “musulmon millati” deyilganda an’anaviy tushunchaga ko‘ra jami musulmonlar, ya’ni “Ibrohim alayhissalom millati” tushuniladiki, bu o‘rinda Behbudiy “musulmon millati” atamasida an’anaviy “millat” konseptini hududdan chegaralagan holda millatning *“bir toifa”*sini – Rusiya mamlakatida bo‘lgan musulmon qismini nazarda tutgani anglashiladi.

Behbudiy bu “bir toifa” musulmonlarning yaxshi umr kechirmoq uchun vazifadorligini urg‘ular ekan, millat bo‘lib shakllanish uchun va millatning vakili sifatida millati uchun bu vazifalar nimalardan iborat ekanligini aytadi. Har mo‘min bir-biriga qarindosh bo‘lib, bir-biriga qarindosh ko‘zi bilan qarab, hamma bir bo‘lib, birlikda ish ko‘rishini millat bo‘lib shakllanishda birinchi darajadagi vazifa deb ta’kidlaydi. Millati uchun qilinadigan *“ikkinchi vazifa esa umummusulmonlar ittihod qilub, hamma yakvujud o‘laroq avlodlarni tarbiya qilmoq jihatina sarfi himmat etmak”* ekanligini uqtiradi. “Umummusulmonlar” deganida ham ayni shu “bir toifa”ni, ya’ni Rusiya mamlakatidagi musulmonlarni nazarda tutadi. Shu tariqa hamma o‘z vazifasini ado etib, *“vazifai milliyasi”*da sobit tursa, yaqin fursatlarda umumiy islohot yuzaga kelajagini aytadi. Yaxshi yashamoq uchun bu taraqqiyotga g‘arb xalqlari erishganligini ta’kidlab, ularning taraqqiyot yo‘lini namuna qilib ko‘rsatadi. *“Hech shubha yo‘qdir, yaqin zamonda musulmonlar orasinda taraqqiy (olg‘a bormoq aynul-yaqin mashohid o‘lur), fransuzlar, anglizlar, amriqonlar taraqqiy etmishlar”* [3. B. 275].

Yuqorida *“har millatning vaqtiga ko‘ra, bir vazifasi o‘lmoq darkor”*ligini urg‘ulagan Behbudiy ayni zamon taraqqiyot sari olg‘a bormoq vaqti ekanligini va qilinishi kerak bo‘lgan ishlar milliy vazifa (*“vazifai milliya”*) bo‘lishini aytib, bir taraqqiy yo‘lida bir necha yillar mablag‘ sarf qilib, jon qurbon etib, necha-necha balolarni kechib bo‘lsa-da, maqsadga erishganlarini fransuzlar, inglizlar, amerikaliklar misolida tushuntiradi. Musulmon millati ham bu yo‘lga ilk qadamini qo‘yish arafasida ekanligiga shukrona keltiradi.

Behbudiy bu maqolasida qarindoshlikni musulmonlik qadar teng ko‘rishga alohida e’tibor qaratadi. U har mo‘minning musulmonlik vazifasini qarindoshlik rishtasi bilan bog‘lab tushuntirishga urinadi. Ayniqsa, buni quyidagi satrlarda yaqqol kuzatish mumkin: *“Endi takror, takror deyalim! Musulmonlar biri oxirga qarindoshdir, birining boshi og‘risa hammasi barobar sargardon bo‘lsa kerak, biriga ziyon kelganda hamma barobar ranjida o‘lsun kerak, biriga bir dushman tarafidan zulm va taddilar bo‘lg‘onda hamma mutasolim bo‘lsin kerak, musulmonliq budir, qarindoshliq budir”* [3. B. 277].

Behbudiy maqolada “diniy birlik” sifatidagi “millat” konsepti mazmunini “etnik birlik” sifatida etnik xususiyat bilan to‘yintirayotgani ko‘rinadiki, bunda biz “millat” konsepti an’anaviy mazmundan yiroqlashib, etniklashtirilayotganiga guvoh bo‘lamiz. Bundan Behbudiyning g‘arbda ommalashgan

millat haqidagi nazariyalardan ham xabardor ekanligini anglaymiz. Behbudiy millat qiyofasini bu tarzda shakllantirishga urinishida, albatta, turkiy xalqlar ma’rifatparvarlarining yetakchisi Ismoil Gaspiralining sezilarli ta’siri bor. Ismoil Gaspirali butun turkiy o‘lkalar qatori Turkistonga ham alohida e’tibor qaratgan. O‘lkadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlardan doimo xabardor bo‘lib turgan. Turkiston bilan bog‘liq fikr va qarashlarini o‘zi muharrirlik qilgan “Tarjimon” gazetasida berib borgan. Bular Turkiston ziyolilarining doimiy e’tiborida bo‘lgan.

Sharqshunos olim V.Bartold (1869–1930) mahalliy aholi o‘rtasida yuz berayotgan milliy farqlanishning omillari xususida so‘z yuritib, O‘rta Osiyo mahalliy aholisi milliy ong masalasiga u qadar ko‘p ahamiyat bermasligini ta’kidlaydi. Lekin keyingi paytlarda Yevropa madaniyatining Rusiya orqali ta’siri ostida milliy birlikka erishish uchun urinishlar bo‘layotganligini yozadi (1908-yil) [4. B. 176]. Yuqorida Behbudiyning millat borasidagi qarashlari misolida ham buni ko‘rib o‘tdik. Bartoldning Turkiston aholisida Rusiya ta’sirida milliy ong shakllanishi haqidagi fikriga adabiyotshunos olim H.Boltaboyev e’tiroz bildirib, turkistonliklarning yagona millat bo‘lib shakllanishiga rus ma’murlari qarshi ekanliklarini yashirib ham o‘tirmaganligini ta’kidlaydi: *“XIX asr so‘ngida Farg‘ona va boshqa viloyatlarda yuz bergan milliy mustaqillik yo‘lidagi ko‘tarilishlarni (jumladan, 1898-yilgi Madalixon rahbarligidagi Andijon qo‘zg‘oloni) zo‘ravonlarcha bostirib, o‘z podshohiga yozgan Axborotnomasida general-voliy Duxovskiy shunday maslahat beradi: “Turkiston musulmonlari etnik jihatdan aytarli o‘xshash yo bir-biriga yaqin jamoani tashkil etgani tufayli ularning bir millat bo‘lib shakllanishi istiqbol jihatidan Rusiya ishg‘oli uchun xavfli bo‘lishi mumkin”* [4. B. 176].

Gap “milliy mustaqillik” haqida borar ekan, XIX asr oxiridagi mustaqillik uchun kurash zo‘ravon va mazlum, bosqinchi va mustamlaka, g‘ayrimusulmon va musulmon zidligida kechgandi. Demak, bu davrda voqelikning milliylik doirasi etnik xususiyatdan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy va diniy qamrovni o‘z ichiga oladi. Sharqshunos Bartold Turkiston aholisi o‘rtasida yuz berayotgan milliy farqlanish omillari haqida gapirib, Yevropa madaniyatining ta’siri Rusiya orqali kirib kelganligini qayd etganida mahalliy aholining milliy birlikka erishish uchun urinishlari omili sifatida *“Rusiya ta’sirini” yerli aholiga singdirish”*ni emas, ruslar orqali etnik tushunchaning kirib kelishini nazarda tutgan va bu o‘rinda ruslar yoki Chor hukumati bu ta’sirni yerli aholiga singdirishga urinmagan. H.Boltaboyev ta’kidlaganidek, ular Turkistonda milliy birlik yuzaga kelishidan manfaatdor emas edi. Turkistonda ruslar emas, mahalliy ziyolilar milliy birlik va millat masalasini milliy o‘zlikni anglash sifatida ko‘tardilar. Ayniqsa, bu holat 1905-yildagi Rusiyada yuz bergan inqilobiy voqealardan so‘ng yaqqolroq yuzaga chiqa boshladi. Buni Turkiston ziyolilarining rus ma’murlari tomonidan yerli aholiga nisbatan “sart” so‘zining qo‘llanilishiga e’tirozida ham ko‘ramiz. “Sart” so‘zining muhokama jarayoni o‘lka ziyolilari tafakkurida turkiylik g‘oyasi ildiz otayotganligiga dalolat qilish bilan birga millatning kelib chiqishi haqidagi bilimlarni ham yuzaga chiqargandi. Ammo asr boshida matbuotda milliylik masalasi targ‘ibotiga keng o‘rin berilgan bo‘lsa-da, 1918-yilgacha bo‘lgan darsliklarda Turkiston aholisi asosan “musulmon jamoalari” tarzida e’tirof etiladi. Xususan, 1913-yilda chop etilgan “Ta’limi avval” darsligida “turk, no‘g‘ay, tatar, boshqird, sart, cherkas, porsiyon, turkman, afg‘on, qozoq, qirg‘iz, taranchi” kabilar “musulmon jamoalari” rukni ostida tilga olinadi [5. B. 32].

O‘lkada milliylik masalasi va bunga oid fikrlar ayniqsa matbuotda keng muhokama qilib borildi. “Tarjimon” gazetasining 1908-yil 58-sonidagi “Milliyat” nomli maqolada millat haqidagi bir necha nazariyalar to‘g‘risida fikr bildiriladi. Muallif (moskvalik Sa’ufas) islom dinida “din va millat birligi” haqidagi nazariyaga to‘xtalib, bu nazariya hayotda o‘z tasdig‘ini topmaganligini aytadi. Eroniylar (ajamlar), turklar musulmon bo‘lishsa-da, arablashmay, har bir xalq o‘z tili, urf-odatlarini saqlab qolganligini ta’kidlab, shunday deydi: *“Bu ikki misol ko‘stariyurki, islom siyosiyun fuqahosining*

“din va millat birdur” nazariyasi tamomila hayota kechamadi” [6].

Muallif bugungi kunda (1908-yil) g‘arbda ikki mo‘tabar milliyat nazariyasi borligini urg‘ulaydi: birisiga ko‘ra, millat bir tilda so‘zlashuvchi kimsalar majmuidan iborat bo‘lib, milliyatning xossai mumtozasi *til*dir, deydi. Ikkinchisiga ko‘ra, millat u millatdan bo‘lmoq istagan kimsalarning yig‘indisidir, ya’ni millatning xossai mumtozasi *orzui intisob*dir, deydi. Bunga misol sifatida uch turli tilda so‘zlashuvchi, ikki farqli mazhabga e’tiqod qilgan kimsalar orzui intisob bilan bir millatni (mahzo isvichra, ya’ni shveysar) vujudga keltirganliklarini ta’kidlaydi. Shu asosida paydo bo‘layotgan davlatlarni sanab o‘tib, quyidagi fikrlarni aytadi: *“Unutilmamlidirki, so‘ng zamonlar davlatlarning hududi milliyatlarning hududi-la birlashmaya so’iydir. O‘n to‘qqizinchi asr melodiyaning eng muhim voqeasi Olmoniya, Italiya ittihodlari, Yunon, Ruminiya, Serbiya, Bolg‘ariya istiqlollari, Avstriyadagi ixtilolat, Lahistondagi qiyomalar... Hep davlat hududila milliyat hududining birlashmasi orzusindan zuhur etmishdur”* [6].

Jadidlar ilgari surgan millat va vatan to‘g‘risidagi qarashlar ham ayni shu nazariyaning amaldagi tatbiqi edi.

Al-Asqar Kalininning 1907–1908-yillarda nashrdan chiqqan “Muallim us-soniy” darsligida Rusiya davlati va Turkiston haqida ma’lumotlar keltiriladi [7. B. 84; B. 90]. Darslikda Turkiston Rusiya davlatining shu nomdagi bir *viloyat*i sifatida tilga olinadi. Chor Rusiyasi Toshkentni bosib olgandan so‘ng 1865-yil 6-avgustda Aleksandr II “Turkiston viloyatini idora qilish to‘g‘risida Muvaqqat Nizom”ni tasdiqlagandi. Turkiston 1867-yil iyulda qabul qilingan Rossiya imperiyasi tarkibida Turkiston general-gubernatorligini tashkil etish to‘g‘risidagi qonunga asosan yuzaga kelgan viloyat edi. Adib Xolid ta’kidlaganidek, “Turkiston” rus istilosi sabab vujudga keldi, biroq keyinchalik boshqa ko‘pgina kolonial subyektlar singari bora-bora o‘zlikni anglash vositasiga aylandi [8. B. 45]. Bu holni o‘zida vatanparvarlik ruhi va hissi bilan bog‘liq qarashlar aks ettirgan darsliklar misolida ham kuzatamiz.

Jadidlar e’tiborni bolalarda fikrlash iqtidorini shakllantirishga qaratdilar. Ular fikr tarbiyasi bu davr uchun naqadar muhim ekanligini angladilar va buni anglatishni o‘ziga vazifa ham deb bildilar. Bu ana shu zamon uchun “yangi davr”ga yetaklovchi “yangi tafakkur”ning nishonasi ham edi. Bir necha asarlar yaratgan, she’rlar bitgan, maktablar uchun darsliklar tayyorlagan Avloniy asarlarida hayot ta’limi, insoniylik va hurlikka keng o‘rin ajratdi. Ilk bor 1914-yilda chop etilgan pedagogik fikr taraqqiyoti hamda davrning ijtimoiy-estetik tafakkur rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining “Vatanni suymak” bobida Avloniy Vatanni va unga bo‘lgan tuyg‘uni shunday tushuntiradi: *“Vatan. Har bir kishining tug‘ilib o‘skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur”* [2. B. 55].

Arab tilidan o‘zlashgan “vatan” so‘zining lug‘aviy ma’nosi ko‘plab arab qomusiy lug‘atlari va milliy lug‘atlarda asosan shu ikki ma’noni: 1) kishi tug‘ilib o‘sgan shahar yoki qishloq; 2) mamlakat, davlat kabi ma’nolarni anglatadi. Birinchi ma’noda inson tug‘ilib o‘sgan joy, yer (shahar, qishloq) nazarda tutilsa, ikkinchi ma’noda milliy hudud, ya’ni ma’lum bir millat yashayotgan, muayyan chegaralangan hudud (mamlakat, davlat) anglashiladi. Abdulla Avloniy ham har ikki ma’noni urg‘ulagani holda, Vatanga bo‘lgan tuyg‘u insonning fitratida mavjud ekanligiga e’tibor qaratadi: *“Har kim tug‘ilgan, o‘sgan yerini jonidan ortuq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor”.* Avloniy Vatan hissi ham insonlarda, ham hayvonlarda mavjud ekanligini ta’kidlaydi. Bundan insondagi “vatan hissi” va umuman vatanga bo‘lgan his hayvoniy his ekan, degan fikr tug‘ilmasligi kerak. Abu Homid G‘azzoliyning “Kimyoi saodat: (ruh haqiqati)” kitobining “Insonlik unvonin paydo qilmoq bayonida” nomli faslida inson sifatlari haqida gap borib, hayvonot sifatlari ham inson vujudi binosida mavjud ekanligi aytiladi [9. B. 30]. Insonda hayvoniy sifatlar ham borligining sababini tushuntirib, inson agar bu sifatlarni o‘ziga bo‘ysundirib, undan *ulov* va *qurol* sifatida foydalana olsa,

*saodat*ga erishishini ta’kidlaydi. Bu ma’niga yeta olmaganlar haqiqatni tanimoqdan to‘silgan holda qolishlarini bayon qiladi. Demak, insondagi vatanga bo‘lgan mazkur hisni “Bu hayvoniy his” deya inkor etish insonni haqiqatni mushohada qilishdan to‘sadi. Haqiqat esa, G‘azzoliy ta’kidlaganidek, inson o‘zligini tanimoqligidir. Inson o‘zini tanishi bu kabi ma’nolarning hammasini bilish bilan yuzaga chiqadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, hayvondan farqli o‘laroq, inson – ongli mavjudot. Hayvon va inson orasidagi farq ham mana shunda, ya’ni fikrlashdadir. Garchi insondagi Vatan hissi, Avloniy aytganidek, hayvondagi his bilan bir xil esada, insonda hayvondan farqli ravishda fikrlash mavjud. Insondagi his fikr orqali bilim (ma’rifat) hosil qiladi. Fikr kuchi insonni ma’rifat tomon yetaklaydi. Ko‘rinadiki, Vatan hissi – hayvoniy his, deya uni inkor qilish insonni fikrlashdan to‘xtatadi. Natijada u yetarli va kerakli bilim va ma’noga ega bo‘lmay qoladi. Bu hisni inkor etmay, undan ulov va qurol sifatida foydalanishda davom etsa, bu insonni saodatga, ya’ni bilimga yetaklaydi. Fikr bilim bilan to‘yintirilsa, u insonda ma’lum tushunchani yuzaga keltiradi va bu tushuncha zamirida, albatta, bir maqsad yotadiki, u biror g‘oya (yoki mafkura)ga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Demak, inson Vatan hissiga ongli yondashgani holda muayyan tushunchaga ega bo‘ladi. Buni Abdulla Avloniy matn davomida bir hayvonning vatanidan ayrilishi uning rohatini buzishiga, yashashida halovat yo‘qolishiga sabab bo‘lishi misolida tushuntiradi. Insonda ham ayni shu hol mavjudligini quyidagicha izohlaydi: *“Biz turkistonlilar o‘z vatanimizni jonimizdan ortuq suydig‘imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issig‘ cho‘llarini, eskimo‘lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi”*.

Avloniy Vatan hissini izohlab fikr bildirar ekan, uni muayyan bir hudud (tug‘ilgan va yashash joyi) bilan bog‘lash orqali tushuntirishga uringani ko‘rinadi. Demak, Avloniy izohida Vatan hissi muayyan bir hududga bog‘liq bo‘lishi kerak, degan qarash yotadi va buni quyidagicha asoslashda davom etadi: *“Hammaga ma’lumdirki, eng muqaddas diniy yerimiz o‘lan Arabistonga bog‘larini, hovlilarini sotub hijrat qilgan hojilarimizning aksari yana o‘z vatanlariga qaytub kelurlar. Buning sababi, ya’ni bularni tortub keturgan quvvat o‘z vatanlarining, tuproqlarining mehr-u muhabbatidur”.*

Avloniy vatandoshlarining Arabistonda yashash istagi bilan ketib, yana tug‘ilgan zaminiga qaytganligining obyektiv sababi ayni shu his – “vatan muhabbati”, degan xulosaga keladi. Matn so‘ngida bu fikrlarini payg‘ambarimiz Rasuli akram (s.a.v.)ning “Hubbul-vatani minal-imoni” (“Vatan sevgisi iymondan”) so‘zlarini keltirish bilan ham asoslaydi.

XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy harakat o‘laroq yuzaga kelgan jadidchilik mafkurasida erk va hurriyat – istiqlol g‘oyalari markaziy o‘rinda turar edi. Avloniy Vatan hissini muayyan hudud (matnda “vatan” konsepti “tug‘ilgan va yashash joyi”ni ifodalaydi) bilan bog‘lab tushuntirishga urg‘u berishida istiqlol g‘oyalariga yo‘naltirilgan maqsad yotgani seziladi. U o‘quvchini Vatandan ketmaslikka, undan ayrilmaslikka chaqiradi, hatto o‘z vatanida o‘lim topmoqlik kishi uchun bu dunyodan g‘amsiz o‘tmog‘i bilan barobar ekanini ta’kidlaydi:

Vatan, vatan deya jonim tanimdan o‘lsa ravon,
Banga na g‘am, qolur avlodima o‘y-u vatanim.
G‘ubora do‘nsa g‘amim yo‘q vujud zeri vahm,
Charoki, o‘z vatanim xokidur go‘r-u kafanim.
Tug‘ib o‘san yerim ushbu vatan vujudim xok
O‘lursa aslina roje’ bo‘lurmu man g‘amnok
[10. B. 264].

Avloniyning 1916-yilda nashr qilingan “Maktab gulistoni” (milliy she’rlardan 5-juz)ga kiritilgan “Vatan” she’rida ham ayni shu fikr tasdig‘idagi yondashuvni kuzatamiz:

Sening noming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim sening qadring bilmas – aqli pastdur.

Sening tuyg‘ung yuraklarga savdo solur,
Sening darding boshqa dardni tortib olur
[11. B. 196].

Vatanni bu taxlit tushuntirish tafakkurda millatni yashab turgan hududiga bog‘lash va bu orqali “milliy Vatan” tushunchasini shakllantirishdan iborat edi. Ayni shu anglam millat tafakkurida mustaqillikning boshlanishi nishonasi ham edi. Zero, har qanday ijtimoiy hayot yangiligi va o‘zgarishlar, avvalo, tafakkurning o‘zgarishi, yangilanishidan boshlanadiki, jadidlar darsliklarda bunga alohida e’tibor qaratgandilar.

“Hurriyat” gazetasining 1917-yil 16-dekabr 59-sonida Abdurahmon Muftiyzoda “Din, vatan, zamon” maqolasida din va Vatan neligini zamon bilan bog‘liq holda tushuntiradi. Muallif bugungi kunda barcha xalqlar saodatli yashashlari shu uch kalimani yaxshigina anglamog‘iga bog‘liq ekanligini aytadi va “din”, “vatan”, “zamon” atamalarining har biriga to‘xtalib, ularga ta’rif va sharh berib o‘tadi. Din haqida gapirar ekan, u Odam bolalarining tinch yashamoqlari uchun, hayot yo‘llarida ilm va aql doirasidan chiqmasliklari uchun Qudrati oliy tarafidan yuborilgan qonun ekanligini ta’kidlaydi.

So‘ng “Vatan nadir?” deya savol qo‘yadi, davomida unga javoban Vatan haqidagi fikrlarini bayon qilib, shunday yozadi: *“Vatan yurtimiz, parvarishgohimiz, quchog‘inda bizni buyutgan Onamizdir. Vatan bizga dars hayot berguvchi muallimimizdir. Bizning osoyishimiz, e’tiborimiz, saodatimiz Vatan ichra mumkindir. Vatan butun tilaklarimizning beshigidir. Uning har bir hovuch tuprog‘i, bizning muqaddas tilaklarimiz bilan to‘ladir.*

Uning ismat va iffat bilan qolmog‘i, bizning iffat va ismat bilan qolmog‘imizdir. Vatanning saodati va rafoh (farovon – *A.X.*) *holi bizga har narsadan burun matlubdir”* [12].

Muallif diyonat yuzasidan Ka’batullohga ta’zim qilinsa, milliyat yuzasidan Vatanga ta’zim, ehtirom qilinishini ta’kidlaydi. Diyonat yuzasidan muqaddas kalom va adolatning ijrosi to‘g‘risida harakat qilinsa, milliyat yuzasidan Vatan taraqqiysi, uning yuksalishi yo‘lida harakat qilinishini aytadi. Diyonat va so‘filik yuzasidan “Olloh” kalimasi zikr qilinganda, milliyat va turklik yuzasidan “Vatan”, “Turon”, “Turkiston” so‘zlarini ko‘p takrorlanadigan duo (avrod) qilib yurishni bayon etadi.

Vatanni sevikli yorga qiyos etib, shunday davom etadi: *“Vatan eng ko‘b sevdigimiz, go‘zal bir mahbubimizdir. Ishqi ila fano martabasig‘a bordig‘imiz ma’shuqimizdir. Payg‘ambarimiz hazratlarining “Vatan muhabbati imondir” degan muborak so‘zlari ma’lumdir. U ila esa biz musulmon va turklarga vatanimizni sevmak din yuzindan, milliyat yuzindan vijdon va aql hukmlari bilan vojibdir”* [12].

Ta’kidlanganidek, davr va ijtimoiy hayot zaruratiga ko‘ra milliyat yuzasidan Vatan e’tiqod darajasiga ko‘tarilgani ko‘rinadi, yuqorida jadidlarning Vatan va uni sevish haqidagi fikr-mulohazalari ayni shu holning targ‘iboti, aks-sadosi o‘laroq jamiyatga tatbiq etib borildi.

Vatan mavzusining dolzarbliligi, uning bu davrda yanada faollashgani “Vatanni sevmoq iymondandir” naqlining payg‘ambarimiz (s.a.v.) tilidan aytilgan hadis sifatida e’tirof etilishida ham ko‘ringanki, bu bir tomondan millat tafakkurida diniy qarashlar va yondashuvning ustuvor ahamiyatini belgilasa, ikkinchi yoqdan ana shu yondashuvdan kelib chiqib, davrning eng dolzarb masalasi – Vatan taqdiri bilan bog‘liq vaziyatga xalq e’tiborini qaratish hamda buni diniy nuqtai nazardan ham ma’lum ma’noda asoslash yotardi. Vatan va vatanparvarlik bilan bog‘liq hadislar talaygina. Biroq mazkur naqlning “hadis” deya tilga olinishi zamirida Vatan mavzusining davr uchun naqadar dolzarb masala ekanligi yotadi. “Hadis” deya urg‘ulanib, asoslanishidan maqsad ham shu aslida. Hozirgi kunimizda ham bu naqlning payg‘ambarimiz (s.a.v.) so‘zlari (hadis) sifatida e’tirof etilgan o‘rinlarga duch kelamiz. Ammo mazkur “hadis” sahih hadislar qatorida uchramaydi. Ba’zi ulamolar buni “zaif hadis” deydilar. Uning “islomiy hikmat” ekanligi ham aytiladi [13].

Muallif maqola so‘ngida zamon haqida fikr bildirar ekan, turk va o‘zbeklar orasida “Har zamonda bir zamon” degan naql borligi-

ni aytib, zamonga qarab ish qilmoq kerakligini ta’kidlaydi.

Xalqning millat sifatida shakllanib borishi barobarida “vatan” konsepti “tug‘ilgan va yashash joyi” ma’nosidan “millatning yashash hududi” ma’nosigacha kengaygani ko‘rinadiki, bu, ayniqsa, millatlarning yashash hududi “Turkiston”, “Turon” nomlari bilan bog‘langanda “vatan”ning davlat hududi bilan bog‘liq holdagi talqinini, ya’ni to‘la yangilangan “vatan” konseptini anglatadi.

Karimbek Norbek o‘g‘li “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil 7-oktabr 43-sonida nashr etilgan “Bizim yoshlarga milliy tarbiya” nomli maqolasida milliy tarbiyaning ahamiyatiga to‘xtalib o‘tadi. Bir necha murojaatlarda *“Qarindoshlar!”* deya urg‘ulashida u millatning etnik xususiyatiga yana bir bor e’tibor qaratayotgani ko‘rinadi. Har bir musulmon qardoshlarga ilm olish farz ekanligini ta’kidlab, bolalarni o‘qitmay qoldirgani uchun ota-onalarni aybli sanaydi. *“Islom shariatida o‘qishdan qaytmoq uchun hech bir uzr yo‘qdir. Shunday bo‘lsa barchalarimiz bolalarimizning yoshlikdan o‘qitub, kelajakda nomusli, tarbiyali va millatning suyuchi bir inson bo‘lishlariga himmat qilayluk!”* [14] kabi chaqirig‘i yuqorida Behbudiy ta’kidlagan “millat vazifasi”ning ijrosi o‘laroq yangraydi.

“Sadoyi Turkiston” gazetasining 1915-yil 6-fevral 58-sonida Munavvarqori Abdurashidxonov Muharram taxallusi bilan yozgan “Bizda hamiyat” maqolasida ziyolilar haqida fikr bildirib, ularning Vatan va millatga munosabati qanday bo‘lishi kerakligi haqida mulohazalarini aytib o‘tadi: *“Bizning zanimizg‘a ziyoli o‘lmak g‘oyat mushkul bir narsadir. Ziyoli Millat, Vatan nima etdig‘ini bilur va ziyoli millat uchun jonini, molini fido etar va millatning taraqqiysi uchun doimo harakat etar. Vaqti kelg‘anda millat uchun o‘zini halokat vartasina tashlamakg‘a muhayyo bo‘lur. Sizning bilmag‘ingiz lozimdirki, bizning millatimizg‘a sado va so‘z birlan ziyoli nomini olg‘on insonlar lozim emas. Balki xizmati, harakati, yordami va himmati birlan ziyoli nomini olg‘on insonlar lozimdir. Yo‘q esa “Millat”, “Vatan”, “madaniyat” – shung‘a o‘xshash so‘zlarni bilmak bilan inson ziyoli bo‘lmaydir”* [15].

Bu singari tushuntirish, chaqiriq va da’vatlardan *viloyat* tarzida paydo bo‘lgan Turkiston e’tiqod darajasidagi timsol – “Vatan” sifatida mahalliy ziyolilar va ular orqali xalq tafakkurida gavdalanayotganiga guvoh bo‘lamiz. Bu shunchaki e’tiqod bo‘lmay, Vatan va Millat uchun kurashuvchilar qalbi va ruhida unga hatto molini, kerak bo‘lganda jonini fido qilish darajasidagi mavqeni egallar edi. Bu mazkur e’tiqodning amaliy isboti ham edi. Yurt bolalarini mana shunday e’tiqod ruhida tarbiyalash asosiy maqsad sifatida jadid ta’limida markaziy o‘rin egalladi.

XULOSA

Yuqoridagi mulohazalarimizdan ma’lum bo‘ladiki, XX asr boshlari o‘zbek jadid matbuoti va darsliklarida “millat” konseptida etnik mansublikning ustuvor bo‘lishi, til va tarix mushtarakligi asosida millatni shakllantirish, ya’ni turkiylik g‘oyasining rivojlanishi madaniy hodisa sifatida dunyo va jamiyatga yangicha qarashni yuzaga keltirdi. Kuzatganimizdek, “vatan” va “millat” konseptlarining bu tarzda qayta idrok etilishi, “Vatan”, “Turon”, “Turkiston” tushunchalarining milliyat yuzasidan e’tiqod darajasiga ko‘tarilishi ijtimoiy hayotni eskicha anglashga zarba berdi. Bu jarayon, avvalo, shu choqqacha milliy tafakkurda mavjud bo‘lgan an’anaviy islomiy konseptlar; ikkinchi yoqdan, Turkistonning mustamlaka sharoitida ekanligi va nihoyat, uchinchidan, jadidchilik g‘oyalarining bevosita ta’sirida kechgandir. Ushbu masalaning maxsus o‘rganilishi XX asr o‘zbek she’riyatidagi eng faol badiiy konseptlardan biri – “Vatan” konseptining genezisi va takomili haqida to‘g‘ri tasavvur hosil qilish imkonini yaratadi.

Adabiyotlar:

1. *Abdirashidov Z., Egamqulova N.* Borar yo'ling Turkistondir... – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 352 b.
2. *Авлоний А.* Танланган асарлар: 2 жилдлик. 2-жилд / Пандлар, ибратлар, ҳикоятлар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 304 б.
3. *Беҳбудий М.* Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2021. – 512 б.
4. *Болтабоев Ҳ.* Фитрат ва XX аср бошлари адабиётшунослиги // Шарқ юлдузи, 1995. – № 11–12. – Б. 175-183.
5. Таълими аввал. Дарслик. – Тошкент, 1913–1914. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Шарқ қўлёзмалари хазинаси, асосий фонд, тошбосма. Инв. № 419.
6. *Саъуфас*. Миллият // "Таржимон" газетаси, 1908 йил 29 июль.
7. *Ал-Асқар Калинин.* Муаллим ус-соний. Дарслик. / Муаллиф:. –Тошкент: 1907–1908. ЎзР ФА Шарқшунослик институти. Шарқ қўлёзмалари хазинаси, асосий фонд, тошбосма. Инв. № 358.
8. *Холид Адиб.* Ўзбекистон таваллуди: илк СССР даврида миллат, империя ва инқилоб. – Тошкент: Академнашр 2022. – 424 б.
9. *Ғаззолий Абу Ҳомид.* Кимёи саодат: (руҳ ҳақиқати). – Тошкент: Адолат, 2005. – 412 б.
10. *Avloniy A*. She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma. – Toshkent: Zabarjad Media, 2022. – 432 b.
11. *Авлоний А.* Танланган асарлар. Шеърлар, ибратлар. 2 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 270 б.
12. *Муфтийзода А*. Дин, ватан, замон // "Ҳуррият" газетаси. 1917 йил 16 декабрь.
13. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2008. [Интернет манба]. URL: https://namozvaqtlari.com/savol-javoblar/6263-vatanni-sevmo-ij-mondandir-adisining-rovijsi-kim.html (Мурожаат этилган сана: 24.12.22)
14. *Каримбек Норбек ўғли*. Бизим ёшларга миллий тарбия // "Садои Туркистон" газетаси, 1914 йил 7 октябрь.
15. *Абдурашидхонов М*. Бизда ҳамият // "Садойи Туркистон" газетаси, 1915 йил 6 февраль.
16. *Рауф А*. *Музаффар*. Бизда зиёлилар ва миллий матбуот // "Садои Туркистон" газетаси, 1914 йил 17 октябрь.
17. *Беҳбудий М*. Миллат вазифаси // "Улфат" газетаси. 1906 йил 6 апрель, 20 апрель.
18. *Долимов У.* Туркистонда жадид мактаблари. – Тошкент: Университет, 2006. – 130 б.
19. *Қосимов Б.* Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Тошкент: Маънавият, 2002. – 400 б.
20. *Қуронов Д.* Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 480 б.
21. *Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М*. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 408 б.

THE COVERAGE OF HOMELAND TOPIC IN UZBEK JADIDS PRESS AND TEXTBOOKS

A.A. Khudayberdiyev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research. 2023. 2(70). 59-70.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: Homeland, nation, religion, traditional concept, Jadidism, enlightenment, Turkestan, Turkishness, progress, nationality.

In the late 19th and early 20th centuries, all Muslim communities experienced serious changes, including education, religion, politics, and economy. From the Ottoman Empire to Iran, from Egypt to Turkestan, Muslims living in the regions of that time are looking for ways out of the real situation and personal awareness, political and spiritual stagnation. A new layer of intellectuals has been formed who consider the beginning of the crisis of Muslim societies to be ignorance and new ignorance. They recognized the need for reforms and began to act in this direction. Colonized Muslim societies fought for independence, while independent Muslim countries fought to preserve their statehood. In both cases, at the beginning of the 20th century, a distinctive feature of the period was the process of realizing the identity of the nation. The awareness of national identity through education became a characteristic of the period, which gave impetus to the promotion of national poems, prose and drama reflecting national life, journalistic works devoted to socio-economic issues in the period’s press. It was connected with the need to wake up the nation, to realize its place in the world and its future prospects. The process of understanding, naturally, requires a corresponding system of concepts. As a result, the activation of the concepts of “homeland” and “nation” in the modern press and literature, as well as the desire to clearly define their content, was observed. The renewed concepts of “homeland” and “nation” were gradually included in the education of the Jadids, in the textbooks used in the schools they opened. Jadids, who aimed to achieve the goal through education, tried to convey and teach the ideas of independence to children through the concept of “homeland”.

The originality of the works of Uzbek artists belonging to the generation of modern literature of the beginning of the 20th century, the fact that they were created on the basis of a new system of concepts suitable for the time, has been noted many times by literary Jadids, who aimed to achieve the goal through education, tried to convey and teach the ideas of independence to children through the concept of “homeland”.

In the article, on the example of modern Uzbek textbooks, we will consider the genesis and improvement of the concepts of “homeland” and “nation” from the most active artistic concepts, as well as the issues of their coverage in connection with the influence of the social environment of the time.

References:

1. Abdirashidov, Z., Egamkulova, N. (2023). *Borar yo‘ling Turkistondir*… [Your way is Turkestan...] Tashkent: Akademnashr.

2. Avloniy, A. (2006). *Tanlangan asarlar*. Pandlar, ibratlar, hikoyatlar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari [Selected works: Pandams, parables, stories, lives of prophets, dramas, articles, travel memories]. In 2 volumes. Vol. 2. Tashkent: Ma’naviyat.

3. Behbudiy, M. (2021). *Tanlangan asarlar* [Selected works]. Vol. 1. Tashkent: Akademnashr.

4. Boltaboyev, H. (1995). Fitrat va XX asr boshlari adabiyotshunosligi [Fitrat and early 20th century literary studies]. *Sharq yulduzi*. 11-12. Pp. 175-183.

5. *Ta’limi avval*. (1913-1914). [Education first]. Textbook. Tashkent. Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Institute of Oriental Studies. Treasury of Eastern manuscripts, main stock, lithograph. Inventory No. 419

6. Sa’ufas. (1908). Milliyat [Nationality]. *Tarjimon*. July 29.

7. Kalinin, Al-Asqar. *Muallim us-soniy*. (1907-1908). [The second teacher]. Textbook. Tashkent. Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Institute of Oriental Studies. Treasury of Eastern manuscripts, main stock, lithograph. Inventory No. 358.

8. Xolid Adib. (2022). *O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob* [Birth of Uzbekistan: Nation, Empire and Revolution in the Early USSR]. Tashkent: Akademnashr.

9. G‘azzoliy, Abu Homid. (2005). *Kimyoi saodat: (ruh haqiqati)* [Chemical Bliss: (a reality of the soul)]. Tashkent: Adolat.

10. Avloniy, A. (2022). *She’rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma* [Poems, pedagogical works, drama, articles and travelogue]. Tashkent: Zabarjad Media.

11. Avloniy, A. (1998). *Tanlangan asarlar. She’rlar, ibratlar* [Selected works. Poems, parables]. 2 volumes. Vol. 1. Tashkent: Ma’naviyat.

12. Muftiyzoda, A. (1917). Din, vatan, zamon [Religion, homeland, time]. *"Hurriyat" gazetasi*. December 16.

13. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Hadis va hayot* [Hadith and life]. Vol. 1. Tashkent: Sharq, 2008. [Online]. URL: https: //namozvaqtlari.com/savol-javoblar/6263-vatanni-sevmo-ijmondandir-adisining-rovijsi-kim.html: (Date of access: 24.12.2022)

14. Каримбек, Н. (1914). Bizim yoshlarga milliy tarbiya [National education for our youth]. *"Sadoi Turkiston" gazetasi*. October 7.

15. Abdurashidxonov, M. (1915). Bizda hamiyat [We have the will]. *"Sadoi Turkiston" gazetasi*. February 6.

16. Рауф, A.M. (1914). Bizda ziyolilar va milliy matbuot [We have intellectuals and national press]. *"Sadoi Turkiston" gazetasi*. October 17.

17. Behbudiy, M. (1906). Millat vazifasi [The task of the nation]. *"Ulfat" gazetasi*. April 6-, 20.

18. Dolimov, U. (2006). *Turkistonda jadid maktablari* [Modern schools in Turkestan]. Tashkent: Universitet.

19. Qosimov, B. (2002). *Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik* [National Awakening: Courage, Enlightenment, Sacrifice]. Tashkent: Ma’naviyat.

20. Quronov, D. (2018). *Adabiyot nazariyasi asoslari* [Basics of literary theory]. Tashkent: Akademnashr.

21. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyeva, M. (2013). *Adabiyotshunoslik lug‘ati* [Dictionary of literary studies]. Tashkent: Akadenashr.

Muallif haqida ma’lumot:

XUDAYBERDIYEV Akram Akbarovich – Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: akromandijoniy@gmail.com